

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.B.Nuriddinova	
Linguistic feature of english riddles	129
S.S.Qozaqova	
"Boburnoma" kompozitsiyasining struktural tahlili.....	133
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	139
N.B.Xudayberganova, D.M.Yuldasheva	
Bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlar yordamida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish	143
G.Sh.Ergasheva	
Do'stlik va dushmanlik konseptlarining leksik-semantik tahlili: o'zbek va ingliz tillari misolida.....	147
M.A.Abdugodirova	
A comparative semantic study of the mechanisms of expressing "Irony" in English and Uzbek ..	153
M.A.Sayidova	
Xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	159
A.X.Шукурова	
Таҳлили қиёси вожаҳои ифодагари расму оинҳои миллий дар ғўйишҳои тоҷикони Сариосиё ва Самарқанд	163
M.N.Xamdamova	
Yangi O'zbekiston qonunchiligida til masalasi va yurislingvistika.....	172
K.T.Sindorov	
She'riy matnning lingvopoetik tadqiqi masalalari	176
X.C.Шукурова	
Таҳлили баъзе вожаҳои лексикаи заргарӣ ва ороишӣ дар "Шоҳнома"-и Фирдавсӣ	180
Г.Р.Ташматова	
Стратегии интеграции обучения языку и предметному содержанию в развитии профессиональной коммуникативной компетенции	187
N.K.Abbasova, M.I.Abdualiyeva	
Weather and natural phenomena in english and russian proverbs: a structural analysis.....	193
N.K.Abbasova, Sh.A Anastasiya	
Integrating AI into esp course to improve language learning through smart and effective strategies	197
I.I.Po'latova	
O'zbek tilidagi evfemizmlarning badiiy asarlarda qo'llanilishi	205
O.Q.Xasanova	
So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	209
K.A.Abdurashidova	
Образы в народных легендах: особенности, роль и поэтика в узбекской и английской традициях.....	213
N.A.Abdullayeva	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs.....	219
D.Y.Kambarova	
Cutting-edge approaches to effective language teaching in the digital era	222
G.T.Khaitova	
O'zbek va ingliz tillaridagi "yaqin-uzoq" oppozitsiya komponentli frazeologik birliklar tahlili	229
M.O.Batirkhanova	
Linguocultural analysis of somatic phraseologisms in proverbs.....	233
J.A.Egamnazarov	
"Boburnoma"ning uch xil tarjimasida harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning qiyosiy tahlili.....	238
K.T.Israilova	
ijtimoiy tarmoqlar tilida muloqotning dinamik evolyutsiyasi	242
M.M.Botirova, Z.G.Qodirova	
Ta'limiy korpus lingvistikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili.....	246
F.K.Aminov	
Multimodal characteristics of women's language on instagram: a discourse analysis of digital identity and engagement strategies	250
Z.M.Sobirova	
Nutqiy tafakkurning neyropsixolingvistik tavsifi.....	254



UO'K: 811.512.133: (091) C 52.

SHE'RIY MATNNING LINGVOPOETIK TADQIQI MASALALARI

ВОПРОСЫ ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ ПОЭЗИЧЕСКОГО ТЕКСТА

ISSUES OF LINGUOPOEIC STUDY OF POETIC TEXT

Sindorov Kaxramon Tolliboyevich 

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada kuzatishlar va tahlillar asosida lingvopoetikaning nazariy asoslari tizimlashtirildi, uning tadqiq metodologiyasi, usul va vositalari, tadrijiy takomili yaxlit o'rganildi. Yozuvchi va shoirilar asarlarida lingvopoetikaning xususiy voqelanish omillari ijodkor–til–badiiyat mushtarakligi tamoyili asosida tadqiq etildi. **She'riy matnning o'ziga xosligi** – fonetik, leksik va grammatik vositalar orqali poetik ma'noni shakllantirishi o'rganildi.

Аннотация

В статье на основе наблюдений и анализа систематизированы теоретические основы лингвопоэтики, организовано единство методологии, методов и инструментов исследования, совершенствование практики. В произведениях писателей и поэтов специфические факторы лингвопоэтики изучались на основе принципа общности творца-языка-искусства. Уникальность поэтического текста - организовано формирование поэтического смысла посредством фонетического, лексического и грамматического инструментария.

Abstract

In the article, based on observations and analysis, the theoretical foundations of linguopoetics were systematized, its research methodology, methods and tools, and its gradual improvement were comprehensively studied. In the works of writers and poets, the specific factors of linguopoetics were researched based on the principle of commonality of creator-language-art. The uniqueness of the poetic text - formation of poetic meaning through phonetic, lexical and grammatical means was studied.

Kalit so'zlar: matn, til, poetik ma'no, **lisoniy xususiyat**, pragmatika, uslubiy xususiyat, mazmun.

Ключевые слова: текст, язык, поэтический смысл, языковая особенность, прагматика, методологическая особенность, содержание.

Key words: text, language, poetic meaning, linguistic feature, pragmatics, methodological feature, content.

KIRISH

Badiiy asarning sifati va qimmati, yozuvchining individual uslubi, birinchi navbatda, uning maqsad va niyatini keng kitobxon ommasiga etkazib beradigan jozibador tili bilan belgilanadi. Shunga muvofiq, badiiy asar tili va yozuvchining o'ziga xos uslubi masalalari bilan hamda badiiy nutq stilistikasi bilan shug'ullanish ilmiy jamoatchilikning diqqatini jalb etib kelayotgan eng muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Badiiy adabiyotda til juda muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Badiiy asarda tilning hal qiluvchi ahamiyatga egaligi hamda asar tilining go'zal va sarmazmun bo'lishi lozimligi to'g'risida Alisher Navoiy, Lev Tolstoy, A.Avloniy, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Oybek, A.Qahhor, Erkin Vohidov va boshqa yirik so'z ustalari ham o'z davrlarida qimmatli fikrlarini bildirib o'tishgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Abdulla Qodiriy badiiy asar tiliga va so'ziga, uning badiiy-estetik hamda ijtimoiy roliga katta ahamiyat berar va yosh qalamkashlardan ham shuni talab qilar edi: "Yo'sinsiz ravishda xotiraga kelgan har bir so'zdan jumlar to'qimoq fazilat sanalmaydir. So'z-qolip, fikr uning ichiga qo'yilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin..."[1.186-187-b.] Oybek ham o'zining adabiy-tanqidiy maqolalarida san'atkorning badiiy asar tilidagi mahorati masalalariga alohida e'tibor bilan qaraydi. Shunisi muhimki, Oybek o'zbek tanqidchiligida birinchi bo'lib 30-yillardayoq, badiiy asar, jumladan, she'riyat tili masalasiga oid maxsus maqola yozdi. Bu maqolada u ko'pchilik shoir va yozuvchilarni til-badiiy asarning uzviy

TILSHUNOSLIK

to'qimasi, uni yuzaga keltiruvchi bosh hujayralar majmuasi ekanligini tushunib etmaslikda ayblaydi, o'z qalamkash do'stlarini "so'z tanlashda jiddiy o'ylashga", "har bir so'zni chertib" ishlatishga chaqiradi.[2.238-244-b.]

O'zbek tilshunosligining hozirgi kundagi eng dolzarb masalalaridan biri sifatida badiiy asar tilini o'rganishdir. Bunda asosiy e'tiborni badiiy asarlar til vositalarining san'atkorona ishlatilishi, poetik qurilish va stilistik xususiyatlarni tahlil qilish, adiblarning o'ziga xos uslubini o'rganish, ularning leksik, morfologik va sintaktik o'ziga xosliklarini tahlil qilish, badiiy matnlarda fonetik, leksik va grammatik jihatlarni o'rganish, o'zbek adabiyotining turli davrlardagi asarlari tili orasidagi farqlarni o'rganish, asarlarda milliy qadriyatlarining til orqali aks etishini tadqiq qilish va bugungi kunda fan-texnologiyalarning keyingi yutuqlari asosida mantni raqamli lingvistikadan foydalanib, badiiy asarlar tili bo'yicha statistik tahlillar o'tkazish ahamiyatlidir.

Badiiy asar tilini o'rganish yozuvchi va shoirning badiiy mahoratini yoritish asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham ulkan san'atkorlarning hammasi tilga alohida ahamiyat berib kelganlar va badiiy asar tilini asarning asosiy qimmatini belgilovchi muhim faktorlardan biri deb hisoblaganlar.

Til jamiyatdagi kishilar orasida o'zaro aloqa quroli bo'lishi bilan birga, badiiy adabiyotning asosiy tasvirlash vositasi hamdir. Chunki tilning bir necha funksiyasi bo'lib, shulardan eng muhimi uning kommunikativ funksiyasi bo'lsa-da, biroq uning xabar berish, ayniqsa, ta'sir etish funksiyasi ham juda muhimdir. Badiiy adabiyotda tilning ana shu ta'sir etish funksiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyot mana shu funktsiyani bajara olmaydigan tilsiz mavjud bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, til o'zining ta'sir etish funksiyasini badiiy adabiyotda namoyish qiladi. Shuning uchun ham adabiyot so'z san'atidir. Til vositalaridan san'atkorona foydalanishgina asar barkamolligini ta'minlaydi, ijodkor mahoratini belgilaydi. So'nggi vaqtlarda kundalik matbuot sahifalarida e'lon qilinayotgan ko'pgina kichik hajmdagi maqolalardan tortib, yirik yozuvchilar ijodini monografik planda yorituvchi va ayrim janrlarning xususiyatlarini, taraqqiyot tarixini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarda ham badiiy asar tilini o'rganishga alohida e'tibor berilayotganligi va badiiy asar tilining yozuvchi mahoratining tarkibiy qismi sifatida o'rganilayotganligi bejiz emas.

Abdulla Qahhor tilni – adabiyotning “asosiy quroli” deb ta'riflaydi. Til, darhaqiqat, yozuvchining asosiy quroli va asar mazmunining munosib bir shaklda namoyon bo'lishidir. Bu haqda yozuvchi shunday deydi: “Adabiyot-bu til. Men shu vaqtga qadar biror yozuvchining tilsiz, imo-ishoralar bilan badiiy asar yaratganini eshitganim yo'q... Agar hozir mendan “Siz uchun til badiiy ijodning boshqa muammolari o'rtasida qanday o'rin tutadi?” deb so'rashsa, men javob berishga qiynalaman. “Asosiy o'rinni”, - deyishdan boshqa so'zim yo'q”.[3. 114-116-b.]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yozuvchi va shoirlarimiz o'z asarlarida ma'lum bir davrni, ma'lum bir muhitni va xilma-xil insoniy xarakterlarni o'ziga xos til va milliy ruh vositasi bilan tasvirlash jarayonida adabiy tilimizga juda katta so'z boyliklari olib kirish barobarida uning ifoda kuchini beqiyos darajada oshirib boradilar.

Yozuvchining ijodiy mushohadakorligi, o'ziga xos fikr va fantaziyasi, his va tuyg'ulari uning nimalarni yozganidagina emas, qanday uslub bilan yozganida ham ko'rinadi. Yirik badiiy asarlarda ko'plab har xil xarakterlar tasvirlanadi, turli voqealar ko'z oldimizdan o'tadi. Bularning hammasini ichdan birlashtirib, yaxlit bir asar qilib turgan narsa yagona g'oya, syujet, kompozitsiya, konflikt va hokazolargina emas. G'oya ham, syujet, kompozitsiya va konflikt ham faqat yozuvchining ichki dunyosida bir-biriga payvand bo'lib, yaxlitlanadi. Shu sababli adabiyot nimaligini yaxshi biladigan kishilar yangi asarlarni qo'lga olganlarida undan faqat hayot tasvirlarinigina emas, balki muallifning o'ziga xos uslubini ham anglab etishga harakat qiladilar. Badiiy adabiyotda realizm hamma vaqt ijodiy metod birligiga putur etkazmagan holda shaxsiy uslublarning ham xilma-xil bo'lishiga imkon beradi. Shaxsiy uslub haqida fransuz yozuvchisi Byuffon “Uslub demak – odam demakdir”, degan edi. Byuffon bu erda odam deb, yozuvchining o'z shaxsini nazarda tutayotganligini anglash qiyin emas.

Shaxsning xarakteri nima ish qilganligi bilangina emas, balki bu ishni qanday qilib, qaysi yo'llar bilan amalga oshirganligi bilan ham belgilanadi. Darhaqiqat, shunday ekan, har bir ijodkorning o'ziga xos uslubi bir voqeani qanday so'zlar vositasida, qaysi obrazlarda aks ettirishi bilan ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Misol uchun, Oybek va Hamid Olimjonning “O'zbekiston”

nomli she'rlarini qiyosan tahlil qilganimizda, eng avvalo, bu ikki buyuk adibimizning faqat ularga xos bo'lgan, ikki xil tasvir uslubini ko'rgandek bo'lamiz:

H.Olimjon: O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,

Dostonlarda bitgan guliston.

O'zbekiston deya atalur,

Uni sevib el tilga olar.

Oybek: Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi,

Bir o'lkaki, qishlarida shivirlar bahor.

Yana,

Dalalarda mashinaning tetik nafasi,

Ufqarning zumrad ko'ksin o'par paxtazor.

Har ikkala she'r qariyb bir xil mazmunga ega. O'zbek yurtining ta'rifi ulardagi lirik syujetning asosini tashkil etgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oybek o'z yurtiga faqat shoirninggina emas, balki siyosiy iqtisodchi olimning nigohi bilan ham nazar tashlagan. Jonli xalq tilini olsak, har bir qishloq tilida o'ziga xos uslubiy belgilarni topamiz. Ayrim viloyatlar, tumanlar shevalaridagi o'ziga xoslik bundan ham yorqinroq. Tilshunos olimlarimizning tadqiqotlarida bu hodisalar juda atroflicha o'rganilgan. Toshkent, Samarqand, Xorazm, Buxoro, Farg'ona, Andijon, Namangan, Jizzax, Baxmal, Shahrisabz va boshqa o'nlab qishloqlar shevalari jonli o'zbek tilining so'zlash uslubi va talaffuzlari naqadar xilma-xil ekanligini ko'rsatadi. Albatta, shevalarga xos so'zlash uslubi bilan yozuvchining, shoirning qalamiga xos uslub orasida juda ko'plab farq bor. Ammo bitta umumiylik shuki, shevalar xalq hayotiga va mehnat jarayoniga juda yaqin turganligi uchun har bir joyning o'ziga xosligini bevosita his qilish imkonini beradi. Haqiqiy xalq dardi, orzu-intilishlarini his qiluvchi ijodkorlar ham hamisha xalq hayotiga yaqin bo'ladi, voqelikda yuz berayotgan jarayonlarni ularning o'zlariga mos so'zlar bilan tasvirlashga intiladi.

Shuni alohida ta'kidlab aytish kerakki, o'ziga xos yorqin uslub o'rtamiyona ijodkorlarda uchramaydi. Uslub faqat mashq natijasida o'zlashtiriladigan sifatlar yig'indisi emas. Shoir Erkin Vohidovning ushbu fikrlari ham yuqoridagi mulohazalarimizning bevosita tasdig'i bo'la oladi: "Barcha iste'dodlar kabi shoirlik iste'dodi ham tug'ma bo'ladi va bolalikda o'zini namoyon etadi. Bu kunduzdek ravshan, haqiqatning o'zidek ayon. Tug'ma iste'dodga ega bo'lmagan, she'riyatga havas tufayli adabiyotga kirib qolganlar – umr bo'yi havaskor bo'lib qoladilar".[4.15-b.]

Badiiy asar tili va uslubiga qaysi fan, qanday usulda tekshirishi lozim? Bu savolga olimlar turlicha javob beradilar, shuning o'zi ham mazkur sohaning hali etarli darajada o'rganilmaganligidan dalolat beradi. Masalan, V.V.Vinogradov adabiyotshunos va tilshunosning bu sohadagi vazifalarini quyidagicha xarakterlaydi: "Tilshunos ishni asardagi so'z to'qimasi analizidan, adabiyotshunos esa xarakterni ijtimoiy-psixologik idrok etishdan boshlaydi".[5.87-b]

Ko'pgina tilshunoslar, adabiyotshunos va yozuvchilar san'atkor tili va uslubiga oid monografiya va maqolalarda tilning obrazlilik, so'zlar, so'z birikmasi va gaplarning badiiy asar tilidagi estetik funksiyasi to'g'risida bir qancha qimmatli fikrlarini bildirib o'tishgan. Ma'lumki, har qanday til birligida munosabatlarning uch asosiy tipi ifodalanadi: a) voqelikdagi predmetlar va hodisalarga munosabat; b) so'zlovchi-insonning o'z orzu-intilishlari, his-tuyg'usi va fikrlariga munosabat; v) muayyan til birligining boshqa til birliklariga munosabati. Darhaqiqat, yozuvchi xilma-xil insoniy xarakterlarni tadqiq qilib, jamiyat rivojiga yordam beradigan salmoqli haqiqatlarni kashf qiladi. Biroq ularning hammasi adabiyotda til orqali ro'yobga chiqariladi", [6.] deb alohida ta'kidlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Haqiqatdan ham adabiyot tildan boshlanadi, negaki tilsiz asar yaratish mumkin emas, shu o'rinda aytish joizki, badiiy asar tili jonli so'zlashuv tilidan tubdan farq qiladi. Jonli so'zlashuv tili umumxalq so'zlashuvi orqali yuzaga chiqsa, badiiy asar tili esa har bir ijodkor, shoir yoki yozuvchi asarlarida bevosita mazmun bilan yaxlit va uyg'un holda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Badiiy til bu - ijodkor tomonidan ma'lum bir normaga solingan, sayqallangan, jozibador tildir. Har bir iste'dodli ijodkor tasvirlayotgan voqea-hodisasini o'ziga xos tarzda, hech kimga o'xshamagan uslubda bayon etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қодирий Абдулла. Кичик асарлар. –Тошкент:1969.–Б. 186-187.
2. Ойбек. Ўзбек поэзиясида тил. Асарлар. Ўн томлик. IX том. –Тошкент: 1974. –Б. 238-244.
3. Вопросы литературы. 1967. №6 с. 114-116.
4. Воҳидов Э. шоиру шеършуур. –Тошкент: Ёш гвардия, 1987. –Б. 15.
5. Дониёров Х. Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. –Тошкент: Фан, 1988. –Б. 87.
6. Шарафиддинов О. Адабиёт тилдан бошланади// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1986. 5-сентябр.